ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 98 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA SODERJANIE CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Гапурова

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV YONDASHUVGA ASOSLANGAN METODIKASI



UO'K: 378.147:37.015.3

Jo'rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich
Andijon davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi v. b. dotsenti
ORCID: 0009-0002-2229-1817

Annotatsiya: Maqolada oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslangan. Mantiqiy tafakkurning tarkibiy komponentlari aniqlanib, fanlararo, fan ichidagi va texnologik integratsiya tamoyillariga tayangan to'rt bosqichli metodik model taklif etilgan. Pedagogik tajriba-sinov natijalari modelning talabalarning tahlil, umumlashtirish, isbotlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy tafakkur, integrativ yondashuv, oliy pedagogik ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, fanlararo integratsiya, tanqidiy fikrlash, metodika, kognitiv kompetensiya.

Abstract: The article provides a theoretical and practical substantiation of a methodology for developing the logical thinking of pre-service teachers in higher pedagogical education institutions based on an integrative approach. The structural components of logical thinking are identified, and a four-stage methodological model grounded in the principles of interdisciplinary, intradisciplinary, and technological integration is proposed. The results of the pedagogical experiment demonstrated the effectiveness of the model in enhancing students' skills of analysis, generalization, reasoning, and problem-solving.

Key words: logical thinking, integrative approach, higher pedagogical education, pre-service teacher, interdisciplinary integration, critical thinking, methodology, cognitive competence.

Аннотация: В статье научно-теоретически и практически обоснована методика развития логического мышления будущих учителей в высших педагогических учебных заведениях на основе интегративного подхода. Определены структурные компоненты логического мышления и предложена четырёхэтапная методическая модель, опирающаяся на принципы межпредметной, внутрипредметной и технологической интеграции. Результаты педагогического эксперимента продемонстрировали эффективность модели в развитии умений анализа, обобщения, доказательства и решения проблемных ситуаций.

Ключевые слова: логическое мышление, интегративный подход, высшее педагогическое образование, будущий учитель, межпредметная интеграция, критическое мышление, методика, когнитивная компетенция.

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida bilimlarni egallash bilan bir qatorda fikrlash, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetensiyaviy yondashuv tobora kengayib bormoqda. Axborot hajmining ortib borishi sharoitida shaxsning ma'lumotlarni saralash, ular o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va asosli xulosa chiqarish qobiliyati uning kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu qobiliyatlarning negizida mantiqiy tafakkur yotadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son[1] Qonuni [1] hamda Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [2] ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni ustuvor vazifalar sifatida belgilaydi. Bu vazifalarni amalga oshirishda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlovchi oliy pedagogik ta'lim muassasalari alohida o'rin tutadi. Chunki o'qituvchining mantiqiy fikrlash madaniyatiga ega bo'lishi o'quvchilarda ham ushbu ko'nikmalarni samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Oliy pedagogik ta'limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, turli fanlar doirasida egallangan bilim va mantiqiy amallarni o'zaro bog'lash hamda ularni kasbiy vaziyatlarda qo'llash muhim ahamiyat kasb

1 https://lex.uz/docs/-5013007

etadi. Shu jihatdan fanlar, metodlar va texnologiyalarni yagona tizimga birlashtiruvchi integrativ yondashuv ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – oliy pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov orqali asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mantiqiy tafakkur muammosi psixologiya va pedagogikada keng o'rganilgan.

Umarova Y. T. tafakkur va nutqning o'zaro bog'liqligini, tushunchalarning rivojlanish bosqichlarini asoslab bergan [3].

J. Piaje intellektual rivojlanishda formal-mantiqiy operatsiyalar bosqichining ahamiyatini ko'rsatgan [4].

N. F. Talizina aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi asosida mantiqiy usullarni o'rgatish yo'llarini ishlab chiqqan [5].

B. Blum tomonidan ishlab chiqilgan hamda L. Anderson va boshqa tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirilgan ta'lim maqsadlari taksonomiyasi tafakkurning quyi va yuqori darajalarini farqlash imkonini beradi [6; 7].

R. Ennis va D. Halpern tanqidiy fikrlashning mantiqiy asoslarini hamda uni baholash mezonlarini tadqiq etgan [8; 9].

Mazkur ilmiy yondashuvlar oliy pedagogik ta'limda mantiqiy tafakkurni integrativ asosda rivojlantirishning yaxlit metodikasini yanada takomillashtirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish;
- modellashtirish;
- pedagogik kuzatuv;
- so'rovnoma va test sinovlari;
- pedagogik tajriba-sinov (aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari);
- olingan natijalarga matematik-statistik ishlov berish (Styudent t-mezoni).

Tajriba-sinov ishlarida pedagogika oliy ta'lim muassasasining 2-kurs talabalari ishtirok etdi: tajriba guruhi (TG) – 62 nafar, nazorat guruhi (NG) – 60 nafar.

Mantiqiy tafakkur darajasi tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, isbotlash va muammoli vaziyatni hal etish ko'rsatkichlari bo'yicha mualliflik test topshiriqlari va keys-topshiriqlar yordamida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili asosida bo'lajak o'qituvchi mantiqiy tafakkurining to'rt komponentli tuzilmasi aniqlandi.

1. **Motivatsion-qadriyatli komponent** talabaning fikrlash faoliyatiga ichki ehtiyoji, haqiqatni asoslashga intilishi va intellektual halolligini ifodalaydi.
2. **Kognitiv komponent** mantiq qonunlari, tushuncha, hukm va xulosa chiqarish shakllari haqidagi bilimlarni qamrab oladi.
3. **Operatsional komponent** tahlil, sintez, taqqoslash, abstraktlash, umumlashtirish, tasniflash, induktiv va deduktiv xulosa chiqarish amallarini bajarish ko'nikmalaridan iborat.
4. **Refleksiv-kasbiy komponent** esa o'z fikrlash jarayonini nazorat qilish, xatolarni aniqlash hamda mantiqiy usullarni o'quvchilarga o'rgatish metodikasini egallashni nazarda tutadi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda integrativ yondashuv uch darajada amalga oshirildi.

Birinchisi – fan ichidagi integratsiya bo'lib, unda bir fanning turli bo'limlaridagi mantiqiy tuzilmalar (ta'rif, tasnif, isbot) umumiy sxemalar asosida birlashtiriladi.

Ikkinchisi – fanlararo integratsiya, ya'ni mantiq elementlarining pedagogika, psixologiya, matematika, ona tili va tabiiy fanlar mazmuniga singdirilishi.

Uchinchisi – texnologik integratsiya, unda an'anaviy va interfaol metodlar, raqamli vositalar hamda muammoli ta'lim yagona didaktik tizimga birlashtiriladi.

Metodika quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- mantiqiy amallarning universalligi va ko'chiriluvchanligi;
- bosqichma-bosqichlik va murakkablashib borish;
- kasbiy yo'naltirilganlik;
- refleksivlik;
- fanlararo uzviylik.

Integrativ yondashuvning mazmuni (1-jadval).

1-jadval: **Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda integratsiya darajalari va vositalari**

Integratsiya darajasi	Mazmuni	Asosiy metod va vositalar
Fan ichidagi	Fan bo'limlaridagi tushunchalar, ta'riflar va isbotlarni yagona mantiqiy sxemaga keltirish	Klaster, tushunchalar xaritasi, mantiqiy-strukturaviy sxema
Fanlararo	Mantiq elementlarini pedagogika, psixologiya, matematika va tilshunoslik mazmuniga singdirish	Fanlararo keyslar, integrallashgan mashg'ulot, binar ma'ruza
Texnologik	Interfaol, muammoli va raqamli ta'lim vositalarini yagona tizimga birlashtirish	Muammoli vaziyat, debat, "Nima uchun?" texnikasi, raqamli test va simulyatorlar

Ishlab chiqilgan metodika to'rt bosqichdan iborat. Motivatsion-diagnostik bosqichda talabalarning boshlang'ich mantiqiy tafakkur darajasi aniqlanib, individual rivojlanish trayektoriyasi belgilanadi. Bu bosqichda mantiqiy paradokslar va kundalik hayotda uchraydigan turli fikrlash holatlarini tahlil qilish orqali o'rganishga qiziqish uyg'otiladi.

Nazariy-asoslovchi bosqichda talabalar mantiqning asosiy qonunlari (ayniyat, nozidlik, uchinchisi istisno, yetarli asos), tushuncha va hukm turlari, xulosa chiqarish shakllari bilan tanishadi. Bunda bilimlar alohida "mantiq kursi" sifatida emas, balki pedagogika va mutaxassislik fanlari mazmuni orqali beriladi. Masalan, pedagogika fanida ta'lim metodlarini tasniflashda tasniflash qoidalariga, psixologiyada tadqiqot natijalarini talqin qilishda induktiv xulosaning asoslanganlik darajasiga e'tibor qaratiladi.

Amaliy-integrativ bosqich metodikaning markaziy qismi hisoblanadi. Unda talabalar fanlararo keyslar, muammoli vaziyatlar va loyihalar ustida ishlaydi. Masalan, "O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini qanday yaxshilash mumkin?" keysida talabalar statistik ma'lumotlarni tahlil qiladi, gipotezalar ilgari suradi, ularni dalillar asosida tekshiradi va asosli pedagogik xulosa chiqaradi. Bunda pedagogika, psixologiya va matematik statistika bilimlari yagona fikrlash faoliyatida birlashadi. Debat texnologiyasi orqali argumentatsiya va kontrargumentatsiya ko'nikmalari, "Nima uchun?" zanjiri orqali sabab-oqibat aloqalarini chuqur tahlil qilish malakasi shakllantiriladi.

Refleksiv-kasbiy bosqichda talabalar o'z fikrlash jarayonini tahlil qiladi, uni yanada takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlaydi hamda maktab o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan dars ishlanmalari va topshiriqlar tizimini mustaqil loyihalaydi. Pedagogik amaliyot davrida ushbu ishlanmalar real sinf sharoitida sinovdan o'tkaziladi. Shu tariqa mantiqiy tafakkur shaxsiy sifatdan kasbiy kompetensiyaga aylanadi.

Aniqlovchi bosqichda tajriba va nazorat guruhlari talabalarining mantiqiy tafakkur darajasi bir-biriga yaqin bo'lgan. Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida ishlab chiqilgan metodika bir o'quv yili davomida qo'llanildi, nazorat guruhida esa mashg'ulotlar an'anaviy tarzda olib borildi. Nazorat bosqichi natijalari (2-jadval).

2-jadval: **Talabalar mantiqiy tafakkur darajalarining tajriba-sinov boshi va oxiridagi taqsimoti (%)**

Daraja	TG (boshida)	TG (oxirida)	NG (boshida)	NG (oxirida)
Yuqori	14,5	35,5	15,0	20,0
O'rta	43,5	51,6	43,3	48,3
Past	42,0	12,9	41,7	31,7

Jadval ma'lumotlari tajriba guruhida talabalarning mantiqiy tafakkur darajasi bo'yicha ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini ko'rsatadi. Jumladan, yuqori darajadagi talabalar ulushi 14,5 foizdan 35,5 foizga oshgan, past darajadagi talabalar ulushi esa 42,0 foizdan 12,9 foizga o'zgargan. Nazorat guruhida ham ijobiy dinamika kuzatilgan bo'lib, tajriba guruhidagi o'zgarishlar nisbatan yuqori natijalar bilan tavsiflangan.

Natijalarga Styudent t-mezoni asosida ishlov berilganda, hisoblangan qiymat (t = 3,12) jadval qiymatidan (t = 1,98; p < 0,05) yuqori ekanligi aniqlangan. Ushbu natija guruhlar o'rtasidagi farqning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Sifat tahlili natijalariga ko'ra, tajriba guruhi talabalarida isbotlash, argumentatsiya qilish hamda bir fanda o'zlashtirilgan mantiqiy usullarni boshqa fanlar va kasbiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlangan. Shuningdek, talabalarning o'z fikrlarini asoslashga intilishi va fikr almashish jarayonida dalillarga tayanish madaniyati mustahkamlangan. Olingan natijalar integrativ yondashuv mantiqiy amallarning universal xususiyatlarini anglash va ularni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy tafakkuri motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional va refleksiv-kasbiy komponentlarni o'zida mujassamlashtirgan yaxlit integrativ sifat hisoblanadi. Uni rivojlantirish ta'lim mazmunining turli yo'nalishlarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali samarali amalga oshiriladi. Integrativ yondashuv fan ichidagi, fanlararo va texnologik integratsiya darajalarini birlashtirib, talabalarning mantiqiy amallarni turli o'quv va kasbiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Motivatsion-diagnostik, nazariy-asoslovchi, amaliy-integrativ va refleksiv-kasbiy bosqichlardan tashkil topgan metodik model talabalarning mantiqiy tafakkurini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Tajriba-sinov natijalari mazkur modelning samaradorligini statistik jihatdan asoslash imkonini bergan.

Ishlab chiqilgan metodikani oliy pedagogik ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga, jumladan, pedagogika, psixologiya va xususiy metodika fanlarini o'qitish amaliyotiga, shuningdek, pedagoglarning malakasini oshirish kurslariga joriy etish tavsiya etiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda raqamli ta'lim muhitida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan adaptiv texnologiyalarni ishlab chiqish, ularni integrativ metodik model bilan uyg'unlashtirish hamda ta'lim amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son2 // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son3 Farmoni. 2019-yil 8-oktyabr.

Umarova Y. T. Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 676058.

Пиаже Ж. Психология интеллекта. – СПб.: Питер, 2003. – 192 с.

Талызина Н. Ф. Педагогическая психология. – М.: Академия, 1998. – 288 с.

Bloom B. S. (Ed.). Taxonomy of Educational Objectives. Handbook I: Cognitive Domain. – New York: David McKay, 1956. – 207 p.

Ennis R. H. Critical Thinking. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996. – 413 p.

Yo'ldoshev J. G'., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 104 b.

Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b.

2 https://lex.uz/docs/-5013007
3 https://lex.uz/docs/-4545884

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.